DOLZARB MAVZU

PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUQUQBUZARLIKNING NAZARIY TAHLILI

Boboyeva O‘g‘iloy Tolib qizi,
Navoiy davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Ushbu maqolada pedagogik savodxonlikning mazmun-mohiyati hamda uning yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishdagi o‘rni nazariy jihatdan tahlil qilingan. Huquqbuzarliklarning kelib chiqish omillari, ularni bartaraf etishda oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, pedagogik savodxonlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va samarali usullari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik savodxonlik, huquqbuzarlik, huquqiy tarbiya, profilaktika, huquqiy madaniyat, oila, maktab hamkorligi.*

THEORETICAL ANALYSIS OF LAW VIOLATIONS BASED ON THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL LITERACY

This article theoretically analyzes the essence and significance of pedagogical literacy and its role in preventing offenses among young people. The factors leading to offenses, as well as the importance of cooperation between family, educational institutions, and community in eliminating them, are highlighted. In addition, the main directions and effective methods of developing pedagogical literacy are presented.

Keywords: *pedagogical literacy, offense, legal education, prevention, legal culture, family, school cooperation.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРАВОНАРУШЕНИЙ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ

В данной статье теоретически анализируется сущность и значение педагогической грамотности, а также её роль в предупреждении правонарушений среди молодёжи. Освещаются факторы, способствующие возникновению правонарушений, и значение сотрудничества семьи, образовательных учреждений и махалли в их устранении. Кроме того, представлены основные направления и эффективные методы развития педагогической грамотности.

Ключевые слова: *педагогическая грамотность, правонарушение, правовое воспитание, профилактика, правовая культура, семья, сотрудничество школы.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlashda yosh avlodning huquqiy madaniyati hamda pedagogik savodxonligi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda ta’lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligiga tayangan holda pedagogik savodxonlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik savodxonlik shaxsning ta’lim-tarbiya jarayonining mohiyatini anglash, pedagogik bilimlarni amaliyotda qo‘llash va tarbiyaviy vaziyatlarni to‘g‘ri baholash qobiliyatini ifodalaydi. Huquqbuzarliklarning nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning kelib chiqishida oilaviy muhit, ijtimoiy omillar, tengdoshlar ta’siri va ma’naviy qadriyatlarning shakllanish darajasi muhim o‘rin tutadi.

Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish yoshlarning huquqiy ongini yuksaltiradi, ularda qonunga hurmat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantiradi. Shu bois ta’lim jarayonida interfaol metodlardan, huquqiy mavzudagi tarbiyaviy tadbirlardan hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyat taraqqiyoti va huquqiy madaniyatning yuksalishi bevosita pedagogik savodxonlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagogik savodxonlik nafaqat ta’lim jarayonida, balki huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari, ularning ijtimoiy-psixologik ildizlari va oldini olish mexanizmlarini nazariy tahlil qilishda pedagogik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish orqali shaxsning huquqiy bilimlari kengayadi, huquqiy qadriyatlarga hurmat shakllanadi va huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy immunitet mustahkamlanadi. Shu bois, huquqbuzarliklarni nazariy tahlil qilishda pedagogik savodxonlikni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada pedagogik savodxonlikning huquqbuzarliklarning oldini olishdagi o‘rni, uning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, huquqiy ongni shakllantirishda ta’lim-tarbiya jarayonining roli, pedagogik yondashuvning samaradorligi hamda huquqbuzarliklarning ijtimoiy oqibatlarini kamaytirishdagi ta’siri yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Huquqshunoslikda huquqbuzarlik – jamiyat uchun xavfli bo‘lgan va qonun bilan taqiqlangan qilmish sifatida baholansa, pedagogikada huquqbuzarlik – bu shaxs ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) jarayonining izdan chiqishi, ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik va tarbiyaviy muhitdagi nuqsonlarning oqibatidir.

Deviant xulq-atvor nazariyalari (R.Mertonning *Stukturaviy-funksionalizm nazariyasi*, A.Banduraning *Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi*) shuni isbotlaydiki, o‘quvchidagi huquqbuzarlik birdaniga paydo bo‘lmaydi. U bosqichma-bosqich rivojlanadi: O‘quv faoliyatiga nisbatan salbiy munosabat ⟶ Maktab va oila bilan nizolar ⟶ Deviant guruhlarga qo‘shilish ⟶ Huquqbuzarlik.

Ushbu zanjirni aynan boshlang‘ich bosqichlarida uzib tashlash uchun pedagogik savodxonlik birlamchi mexanizm hisoblanadi.

Profilaktik faoliyatning nazariy asosini tizimlilik, uzluksizlik va hamkorlik tamoyillari tashkil etadi. Oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi uzviy hamkorlik yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirib, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy qadriyatlar va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Demak, pedagogik savodxonlik, huquqiy tarbiya va ijtimoiy hamkorlikning o‘zaro uyg‘unligi huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini ta’minlaydigan muhim nazariy asosni vujudga keltiradi.

Huquqiy tarbiya nazariyasiga ko‘ra, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi oiladagi tarbiya, maktabdagi ta’lim jarayoni hamda ijtimoiy muhitning uzviy ta’siri ostida kechadi. A. Avloniy ta’kidlaganidek, tarbiya masalasi jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti uning qonuniy xulq-atvorining mustahkam asosini tashkil etadi [3].

Mazkur mavzu bo‘yicha, ayniqsa, tarbiya, huquqiy madaniyat va pedagogik savodxonlik masalalarini yoritgan o‘zbek olimlari orasida quyidagilarni alohida qayd etish mumkin: Abdulla Avloniy, Jumaboy Hasanboyev hamda Qozoqboy Yo‘ldoshev. Ularning asarlarida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy ongni shakllantirish va pedagogik ta’sirning ahamiyati keng yoritilgan. Maqolamiz davomida yuqorida sanab o‘tgan bir qator o‘zbek va xorijlik olimlarning har biriga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

A.Avloniy har doim e’tiborni tarbiyaga qaratgan. Chindan ham biz uchun tarbiya hamisha birinchi o‘rinda turishi lozim. Chunki biz ta’lim berishimiz uchun, avvalo, tarbiyalangan shaxslar lozim. Ya’ni shaxs tarbiyalanishi uchun Safo Ochil aytganidek, muhit juda katta rol o‘ynaydi. Shaxs shakllanishiga ta’sir etadigan 3ta omildan eng keraklisi va ajralmasi bu – muhit deb o‘ylayman. Chunki sizni atrofingizdagi muhit ijobiy bo‘lsa, bu siz uchun albatta foydali hisoblanadi.

O‘zbek Professori J. Hasanboyev pedagogika orqali barkamol shaxsni shaklllantirish kerakligini aytgan. Mening fikrimcha ham barkamol shaxsni tarbiyalasakgina biz o‘zimiz istagan bugungi jamiyatimiz uchun ya’ni uchunchi renesanss uchun muhim bo‘lgan kadrni shakllantirishimiz mumkin [5].

Professor R. Mavlonova ham tarbiyaning asosiy vazifasi shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish ekanligini ta’kidlagan. Chindan ham pedagog bilim beruvchi bo‘lishi bilan birga do‘st, yordamchi, psixolog ham bo‘la olishi kerak. Agar u o‘zida insoniylik xislatlarini shakllantirgan pedagog bo‘lsa atrofidagi yoshlarni o‘ziga ergashtira oladi, deb o‘ylayman [6].

Ta’lim subyektlari (pedagog va o‘quvchi) o‘rtasidagi ijtimoiy-pedagogik munosabatlarni maqbullashtirish, o‘quvchi shaxsida deviant (og‘ishgan) xulq-atvor shakllanishining oldini olish va huquqiy madaniyatni qaror toptirish pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu muammoning nazariy tahlili bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ikkita fundamental tushunchaga borib taqaladi: “pedagogik savodxonlik” va “o‘quvchilar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi” [9].

Ushbu nazariy tahlildan maqsad – pedagogik savodxonlik va huquqbuzarliklar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini falsafiy, psixologik va pedagogik nazariyalar doirasida yoritib berish hamda muammoning ilmiy-nazariy bazasini umumlashtirishdan iborat.

1-jadval.

Pedagogik savodxonlik va huquqbuzarlik profilaktikasi bo‘yicha o‘zbek va jahon olimlarning ilmiy qarashlari

Abdulla Avloniy	Avloniy nazarida tarbiya faqat bilim berish emas, balki yoshlarning axloqiy, huquqiy va ma’naviy kamolotini ta’minlash vositasidir. Agar bolada to‘g‘ri tarbiya shakllansa, u jamiyat qonun-qoidalariga hurmat bilan qaraydi va huquqbuzarlikka moyilligi kamayadi	**Albert Bandura**	Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, yoshlar kattalar va tengdoshlarning xatti-harakatlarini kuzatish hamda ularga taqlid qilish orqali xulq-atvorni o‘zlashtiradilar.
Jumaboy Hasanboyev	Professor J. Hasanboyev pedagogikani shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi fan sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “Pedagogik jarayonning asosiy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirishdir”. Barkamol shaxs esa nafaqat bilimli, balki huquqiy ongli, ma’naviy yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli fuqaro bo‘lishi kerak.	**Sh.A.Amonashvili**	Amonashvili insonparvar pedagogika konsepsiyasini ishlab chiqqan.
Safo Ochil	Pedagog olim S. Ochil tarbiyaning uzluksizligi va ijtimoiy muhitning ta’sirini alohida ta’kidlaydi.	**A.S. Makarenko**	Makarenko tarbiyani jamoa orqali tashkil etish g‘oyasini ilgari surgan.
E. G‘oziyev	Mashhur o‘zbek psixologi E. G‘oziyev shaxs rivojlanishida psixologik omillarning rolini keng yoritgan.	**L.S. Vigotskiy**	Vigotskiy madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bolaning shaxs sifatida shakllanishi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liqligini asoslaydi.
R. Mavlonova	Professor R. Mavlonova tarbiyaning asosiy vazifasi shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish ekanligini ta’kidlaydi.	**V.A. Slastenin**	Rus pedagogi V.A. Slastenin pedagogik kompetentlikni zamonaviy pedagog faoliyatining mezoni deb hisoblaydi.

Pedagoglar va ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish ham huquqbuzarliklar profilaktikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Oila, maktab va mahalla hamkorligining mustahkamligi yoshlarning sog‘lom ijtimoiylashuviga xizmat qiladi. Buning uchun faqatgina maktab yoki ota-onaning o‘zigina javobgar bo‘lib qolmasligi kerak. Azaldan xalqimiz orasida “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona”, degan maqol bor. Bu maqol zamirida juda katta ma’no mazmun yotibdi. Har bir bola jamiyatimizning bir bo‘lagi hisoblanadi. Ularning taqdiri biz atrofdagilarni befarq qoldirmasligi zarur. Shuning uchun ham har bir bolaga alohida e’tibor qaratish va uni o‘z bolamizday qayg‘urib, g‘amxo‘rlik qilishimiz zarur.

Pedagogik savodxonlik nazariy jihatdan shaxsning ta’lim-tarbiya jarayoniga oid bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarining yaxlit tizimi sifatida qaraladi. U pedagogik jarayonning qonuniyatlarini anglash, tarbiyaviy vaziyatlarni tahlil qilish hamda tarbiya usullarini maqsadga muvofiq qo‘llashni nazarda tutadi. Shu jihatdan pedagogik savodxonlik yoshlarning huquqiy madaniyati va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqotdan olingan natijalar. Nazariy manbalar va dissertatsion tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “pedagogik savodxonlik” tushunchasi vaqt o‘tishi bilan qamrovi kengayib borayotgan kategoriyadir.

-*Klassik pedagogik yondashuvda* (Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy) pedagogik savodxonlik asosan o‘qituvchining dars berish usullarini bilishi va ta’lim-tarbiya qoidalaridan xabardorligi sifatida talqin qilingan.

-*Zamonaviy pedagogikada* esa pedagogik savodxonlik – bu pedagogning nafaqat fan va metodika bo‘yicha bilimi, balki o‘quvchining ichki dunyosini (psixikasini) tushunishi, uning ijtimoiy-huquqiy

ehtiyojlarini anglay olishi hamda inqirozli (krizisli) vaqtlarda to‘g‘ri pedagogik qaror qabul qila olish qobiliyatining integral yig‘indisidir [5].

Pedagogik savodxonlikning tarkibiy tuzilishi nazariy jihatdan uchta asosiy blokdan iborat:

1. Gnostik (bilim) blok: Huquqiy, psixologik, fiziologik va pedagogik bilimlarning mavjudligi.

2. Operatsional (amaliy-faoliyatli) blok: Devitatsiya alomatlarini erta aniqlash, korreksion mashg‘ulotlar va muloqot texnologiyalarini qo‘llay olish.

3. Aksiologik (qadriyatli) blok: O‘quvchiga shaxs sifatida qarash, uning huquqlari va qadr-qimmatini oliy qadriyat deb bilish [4].

Huquqbuzarlikning nazariy talqinlarida uning vujudga kelishi shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi nuqsonlar, huquqiy tarbiyaning yetarli emasligi va salbiy ijtimoiy muhit ta’siri bilan izohlanadi. Huquqiy tarbiya nazariyasiga ko‘ra, qonunlarga hurmat, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish va o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissi erta yoshdan boshlab shakllantirilishi zarur.

Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish asosida huquqbuzarliklarning nazariy tahliliga oid tadqiqotlar bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalarni ko‘rsatdi:

Huquqiy ongning shakllanishi: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar huquqiy normalarni chuqurroq anglaydi va ularga rioya qilish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining ta’siri: Huquqbuzarliklarning oldini olishda ta’lim muassasalarida huquqiy bilimlarni berish, huquqiy madaniyatni shakllantirish va tarbiyaviy faoliyatni kuchaytirish samarali natija bergan.

Huquqbuzarlik sabablari: Tadqiqotda aniqlanishicha, huquqbuzarliklarning ko‘p qismi huquqiy savodsizlik, ijtimoiy muhitning salbiy ta’siri va pedagogik yondashuvning yetarli darajada qo‘llanilmasligi bilan bog‘liq.

Profilaktika mexanizmlari: Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktik chora-tadbirlar samaradorligi oshgan. Jumladan, huquqiy targ‘ibot, interaktiv mashg‘ulotlar va tarbiyaviy suhbatlar ijobiy natija bergan.

Ijtimoiy ahamiyat**:** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik savodxonlikni rivojlantirish nafaqat individual darajada, balki jamiyat miqyosida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi [4].

Tadqiqot natijalari bo‘yicha pedagogik savodxonlikni rivojlantirish asosida huquqbuzarlikning oldini olish yuzasidan tajriba-sinov ishlari olib borildi. Bunda, talabalarda huquqbuzarlik bo‘yicha pedagogik savodxonlik shakllantish orqali ularda huquqqiy ong, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish asosida mutaxassislik mavzularining mazmunini jonli tushuntirishni tashkil etish va talabalarda huquqiy fikrrni oshirish, fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirishda asosiy e’tibor qaratildi.

Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat universitetida olib borildi va unga 148 nafar talaba jalb etildi.

2-jadval.

Tajriba-sinov uchun tanlangan guruhdagi talabalar soni va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

T/r	Talaba-larning umumiy soni	Tajriba-sinov guruhi					Nazorat guruhi				
		Talaba soni	Yuqori	O‘rta	Qoniqarli	Qoniqar-siz	Talaba soni	Yuqori	O‘rta	Qoniqarli	Qoniqar-siz
1	148	72	28	30	14	0	76	18	22	33	3

Tajriba-sinov natijalari bo‘yicha tajriba-sinov va nazorat guruhlarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi matematik-statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, tajriba-sinov guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish 79,75% ni, nazorat guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi esa 68,75% ni ko‘rsatdi. Shunga ko‘ra, tajriba-sinov guruhining ko‘rsatkichi 11% ga yuqori ekanligi, bu esa, o‘z navbatida, 1,16 barobar ortiqligi aniqlandi.

Munozara. Pedagogik savodxonlik – huquqbuzarliklar profilaktikasining poydevoridir. Profilaktika faqatgina profilaktika inspektori yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas. Birlamchi va eng samarali profilaktika aynan dars jarayonida va sinf rahbarining pedagogik savodxonligi asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik profilaktikaning ustuvorligi: Huquqiy profilaktika man etish va jazolashga asoslansa, pedagogik savodxonlikka tayangan profilaktika rag‘batlantirish, ijtimoiy moslashtirish (reabilitatsiya) va qiziqishlarni to‘g‘ri yo‘naltirishga asoslanadi.

Tizimli-kompetensiyaviy yondashuv zarurati: Nazariy tahlil shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak va faoliyat yuritayotgan pedagoglarning pedagogik va huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha oliy ta’lim hamda malaka oshirish tizimida “Inklyuziv va korreksion pedagogika”, “Deviantologiya” hamda “Huquqiy-pedagogik diagnostika” modullarini yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish asosida huquqbuzarliklarning nazariy tahlili bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bir qator muhim masalalarni muhokama qilishni talab etadi.

Pedagogik savodxonlik va huquqiy ong o‘rtasidagi bog‘liqlik: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy ongning shakllanishida pedagogik savodxonlik hal qiluvchi omil hisoblanadi. Biroq savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar ham ba’zan huquqbuzarlikka qo‘l urishi mumkin. Bu esa huquqiy bilimlar bilan birga huquqiy qadriyatlarni amaliy hayotga tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Huquqbuzarliklarning sabablari va pedagogik yondashuv: Huquqbuzarliklarning aksariyat qismi huquqiy savodsizlikdan kelib chiqsa-da, ijtimoiy muhit, iqtisodiy omillar va psixologik bosim ham muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, faqat pedagogik savodxonlikni oshirish yetarli emas, balki kompleks yondashuv zarur.

Profilaktika va tarbiya mexanizmlari: Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish mumkinligi tadqiqotlarda isbotlangan. Ammo bu jarayon faqat ta’lim muassasalari bilan cheklanib qolmasligi, oilaviy tarbiya, mahalla va jamiyat institutlari ham faol ishtirok etishi lozimligi munozarali masala sifatida ko‘tariladi.

Nazariy va amaliy tafovut: Tadqiqotlar nazariy jihatdan pedagogik savodxonlikning huquqbuzarliklarni kamaytirishga ta’sirini ko‘rsatadi. Amaliyotda esa bu ta’sir darajasi turlicha bo‘lib, ta’lim sifati, tarbiyaviy ishlarning uzluksizligi va ijtimoiy muhitning barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq.

Jamiyat miqyosidagi ta’sir: Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish nafaqat individual darajada, balki jamiyat miqyosida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, huquqbuzarliklarning kamayishi jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish asosida huquqbuzarliklarning nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va huquqbuzarliklarning oldini olishda ta’lim-tarbiya jarayoni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari pedagogik savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar huquqiy normalarni chuqurroq anglab, ularga rioya qilishga moyil bo‘lishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, huquqbuzarliklarning sabablari faqat huquqiy savodsizlik bilan cheklanmay, balki ijtimoiy muhit, psixologik omillar va tarbiyaviy bo‘shliqlar bilan ham bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shu bois, huquqbuzarliklarning oldini olishda kompleks yondashuv – ta’lim muassasalari, oilaviy tarbiya, mahalla va jamiyat institutlarining hamkorligi zarur.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik savodxonlik huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Huquqbuzarliklarning oldini olishda ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi va sifatini oshirish muhimdir. Jamiyat miqyosida huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquqbuzarliklarning kamayishiga va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik savodxonlik faqat kasbiy bilimlar majmuyi emas, balki shaxsning huquqiy madaniyati, ma’naviy-axloqiy fazilatlari, ijtimoiy mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim omilidir. Huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligi pedagogning kasbiy kompetensiyasi, oilaning tarbiyaviy salohiyati va ta’lim muassasasining profilaktik faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.- 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.- 24 b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Zabarjad Media, 2023. – 128 b.
4. G‘oziyev E.G‘., Qodirov B. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 336 b
5. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011.-480 b
6. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2010. – 116 b.
7. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent, 2019.- 216 b.
8. Ochil S. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 207 b.
9. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta’lim sifati va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006. -592 b.
10. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017. – 248 b.